

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 10 (1071), 2024-yil 14-yanvar, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI TASHKIL ETILGANING 32 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!

Muhtaram Qurolli Kuchlarimiz faxriylari! Qadri vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni mamlakatimiz hayotidagi muhim sana — O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Xalqimiz sizlar kabi mard va jasur harbiylarimiz timsolida Vatanni himoya qilishdek dunyodagi eng ulug' ishini sharaf bilan ado etib, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari buyuk ajdodlarimizning shonli an'analari munosib davom ettirib kelayotgan ona yurtimizning chinakam qalqonlarini ko'radi. Mana shu qutlug' ayyomda barchamiz sizlarning metin irodangiz, jangovar ruhingiz va shiddatingizga qarab, Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayoti, sarhadlarimiz daxlsizligi mustahkam ishonchli qo'llarda ekanini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lida erishayotgan barcha yutuq va marralarimizda Qurolli Kuchlarimiz va ularning saflarida o'z vazifasini sidqidildan ado etayotgan ming-minglab harbiylarimizning munosib hissasini bor, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Xalqimizning asl o'g'lonlariga xos fazilatlar ulug'lanadigan mana shu unutilmas lahzalarda Vatan oldidagi burchini bajarish chog'ida qahramonlarcha halok bo'lgan botir jangchilarimizni yod etib, ularning o'lmas xotirasini oldida ta'zim qilamiz.

Ishonchim komil, ular o'zlarining jasorati va o'chmas nomlari bilan el-yurtimiz qalbidan hamisha barhayot yashaydi, jangovar saflar-

da ularning o'zni, aziz xotirasi hech qachon yo'qolmaydi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Keyingi yillarda "Xalq va armiya — bir tan-u bir jondir" degan ezgu g'oya asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizatsiya qilish bo'yicha olib borayotgan islohotlarimiz natijasida milliy armiyamizda chuqur sifat o'zgarishlari yuz bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda.

Bu borada, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarimiz muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilari-mizning professional mahorati va obro'-e'tibori jahon miqyosida ham yuksalib bormoqda. Buni mamlakatimiz Qurolli Kuchlari vakillarining nufuzli xalqaro harbiy musobaqalarda faol ishtirok etib, faxrli o'rnlarni egallab kelayotgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va faxriylarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha ham kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ana shunday sa'y-harakatlarimiz hamda Milliy armiyamiz va xalqimizning faol hamkorligi tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz taraqqiyoti, tinchligi va barqarorligining ishonchli kafolatiga, chinakam jasorat va matonat maktabiga aylanmoqda, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Qadri do'stlar!

Dunyo miqyosidagi hozirgi o'ta murakkab vaziyatda mamlakatimiz xavfsizligi va manfaatlarini ishonchli ta'minlash yanada dolzarb vazifamizga aylanmoqda.

Shuni hisobga olgan holda, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, yurtimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish masalalari ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi.

Shu asosda mamlakatimizning harbiy-ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash, qo'shinlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga yanada ulkan ahamiyat qaratamiz.

Buyuk Amir Temur bobomiz aytganlaridek, g'alaba taqdirini avvalo qo'shimning jangovar ruhi va tayyorgarligi, ma'naviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi.

Shu bois, milliy armiyamizning chinakam kuch-qudratini belgilab beradigan qo'rqmas va dovyurak harbiylarimiz qalbidan jangovar ruhini oshirish, ularni har qanday qiyinchilik va sinovga chidamli va matonatli etib tarbiyalash bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Aziz Vatan himoyachilari!

Sizlarni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor samimiy tabriklab, barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt, olijanob va mas'uliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

Azm-u shijoatli O'zbekiston harbiylari — Vatanimiz posbonlariga shon-sharaflar bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti,
Qurolli Kuchlar
Oliy Bosh Qo'mondoni

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

TINCHLIGIMIZ KAFOLATI,
MILLIY G'URURIMIZ TIMSOLI

Mamlakatimizda har yili Vatan himoyachilari kunini milliy bayram sifatida nishonlash o'ziga xos an'anaga aylangan. Bu bejiz emas, albatta. Siz-u bizning hayotimiz Qurolli Kuchlarimiz tomonidan ishonchli tarzda himoya qilinmoqda. Mana shunday mas'uliyatli burchni ado etayotgan, taraqqiyotimiz barqarorligiga kamarbasta bo'layotgan harbiylarimizni har qancha e'zozlasak, e'tirof etsak arziydi.



Poytaxtimizdagi "Xalqlar do'stligi" san'at saroyida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan tantanali bayram tadbiri o'ziga xos shukuh, ko'tarinki kayfiyatda nishonlandi.

Bayram tantanasida Oliy Majlis va hukumat a'zolari, harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari, mamlakatimizda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, keng jamoatchilik ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'lagan bayram tabrigini O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri, general-leytenant Bahodir Qurbonov o'qib eshittirdi.

Qayd etish kerakki, bayram shodiyonalari Prezidentimiz farmoyishiga asosan yurtimizning har bir hududida ko'tarinki ruhda o'tkazilayotir.

Bayram tadbirida harbiy xizmatchilar tomonidan jangovar san'at mahoratini o'zida jamlagan va Qurolli Kuchlar qudratini

namoyish etuvchi, vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

Taniqli san'atkorlar, harbiy orkestr va badiiy jamoalar ijrosidagi ona Vatanni ulug'lovchi kuy-ko'shiqlar, dilbar raqslar guldastasi barchaga xush kayfiyat bag'ishladi.

Tantanalarda yuzlarida samimiy tabassum, atrofga mamnuniyat bilan boqayotgan harbiylarning dil izhorlarini, ko'ngildan kechayotgan fikrlarini boricha qog'ozga tushirdik.

Davomi 2-betda

Buyuk o'zbek yo'li

BIZ NEDAN TARAQQIY ISTARMIZ?!

Yoxud vatanparvarlik bo'lmagan joyda farovonlik yo'llari yopiladi

Bir qarashda hayotimiz maromida kechayotgandek, har ish, yurtimizdagi har bir o'zgarish o'z-o'zidan bo'layotgandek ko'rinadi. Ammo tiriklik qismatining o'z mohiyati, quvvatlanish manbalari bor. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va harbiy-ma'muriy sektorlarning 2023-yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo'ljallangan vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishidan ana shunday xulosalar bilan chiqdik.



Shu o'rinda alohida qayd etishni istardikki, mazkur yig'ilish Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan kengaytirilgan majlisida milliy ma'naviy taraqqiyotga doir ilgari surilgan fikrlarning mantiqiy davomi, vazifalarning tizimlilik sifatida barchamizda jo'shqin taassurot qoldirdi.

MILLIYLIK
IQTIDORI

Inson his-tuyg'ulari, ba'zan zakosi ham ko'pincha muvaqqat boshqaruv iskanjasida qoladi. Bu boshqaruv o'rani aniq o'ylangan, kimningdir manfaati uchun atalgan mafkuraviy, g'oyaviy maqsadlarga xizmat qiladi, aniqrog'i, yo'naltiriladi.

Bir qarashda axboriy ko'rinish kasb etgan mazkur jarayon zamirida katta-katta siyosiy, iqtisodiy manfaatlar yashirin ekani ko'pchilik, hatto ziyolilar qatlam ham sezishi gumon bo'lgan uslubda, g'oyat mohirona singdiriladi. Bu XXI asrning eng ayovsiz ong osti xurujidir.

Davomi 3-betda

Tahlil va taqqos

Turizm eksporti
IKKI MILLIARD
DOLLARDAN OSHDIBu ko'rsatkich soha jadal
rivojlanayotgani, iqtisodiyotimizning
yetakchi tarmoqlaridan biriga
aylanayotganidan dalolat

Bugun biz globallashuv jarayoni tobora jadallashgan, turli sohalarda hamkorlik aloqalari rivojlanib, axborot oqimi tezlashgan zamonda yashayapmiz. Tabiiyki, bunday sharoitda odamlarning dunyo bo'ylab erkin harakatlanishi va o'zaro bordin-keldilar tobora rivojlanyapti. Bu jarayon xalqaro munosabatlar bilan bir qatorda, sayyohlik rivojida ham muhim omil bo'layotir.

Ma'lumotlarga ko'ra, koronavirus pandemiyasidan keyingi yillarda dunyodagi qator davlatlar tomonidan olib borilgan tizimli ishlar natijasida bugungi kunda turizm qayta oyoqqa turmoqda. Buni birgina 2022-yilda dunyo miqyosida salkam bir milliard sayyoh xorijga sayohat qilgani misolida ham ko'rish mumkin. 2023-yilda esa bu raqam yanada o'sdi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, turizm bilan bog'liq daromadning 30 foizi odamlarning qo'lga ish haqi bo'lib boradi, sanoat va boshqa tarmoqlarda bu ko'rsatkich 10 foizdan oshmaydi. Shuning uchun ham sayyohlarni jalb qilishning yangidan-yangi yo'llari izlanayapti. Xususan, ko'plab davlatlar hozirgi murakkab vaziyatda o'z iqtisodiyotini tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda turizm sohasiga tayanmoqda. Global raqobat muhiti kuchaymoqda. Bu bejiz emas, albatta.

Zero, sohaga kiritilayotgan mablag' kelgusida yaxshi daromad keltiradi. Yaratilayotgan har bir yangi ish o'zni esa boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyini hosil qilishga imkon beradi. Shu bois, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida turizmni rivojlantirish taraqqiyot yo'lini ko'zlagan har bir davlat oldidagi muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Davomi 4-betda



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

TINCHLIGIMIZ KAFOLATI,
MILLIY G'URURIMIZ TIMSOLI

Boshlanishi 1-betda

— Hayotimning salkam 50 yilini shu sohaga bag'ishladim va bundan judayam mamnunman. Bugun armiya va xalqning birligi natijasida Qurolli Kuchlarimiz jamiyatning ajralmas qismiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mustahkam bog'ichiga aylandi, desam hech mubolag'a qilmagan bo'laman, — deydi mudofaa vaziri maslahatchisi, faxriylar markaziy kengashi raisi, iste'fodagi polkovnik Abubakr Navro'zov. — Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish borasidagi ishlar yangi bosqichda jadal davom ettirilmoqda. Sohaga raqamlashtirish va ilg'or texnologiyalar joriy etilmoqda. Bularning barchasi milliy armiyamizning tom ma'nodagi nufuzi va obro'sini yanada yuksaltirish, faxrimiz va g'ururimiz timsoliga aylanishda asosiy omil bo'lmoqda. Vatanni, o'z xalqini himoyalash, aslida, har bir insonning vazifasi. Biz, harbiylarga bildirilgan ishonchni oqlash, Vatanimizga, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish esa hayotimizning bosh shioridir.

Darhaqiqat, inson qadriga ustuvor e'tibor qaratilayotgan keyingi yillarda harbiy sohani isloh etish, mazkur yo'nalishdagi milliy qonunchilikni davr talabiga mos tarzda takomillashtirish yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu borada harbiy xotin-qizlarning ham o'rni beqiyos, xizmatlari yuksak.

— El-yurt tinchligi, uning koriga yarash nainki maqsadimiz, balki umrimiz mazmuniga aylalib bormoqda. Yurt tinchligi, xalqimiz himoyasi uchun biz — harbiy xotin-qizlar ham jonimizni berishga tayyormiz. 32 yoshni qarshiladim. Bugun harbiylik formasini kiyib, yurtimiz sharafini himoya qilib kelayotganimdan faxrlanam, — deydi Maryamxon Tojiboyeva. — Joriy yilda Qurolli Kuchlarimiz tizimidagi harbiy xizmatchi ayollar o'rtasida o'tkazilgan "To'maris izdoshlari — 2023" respublika ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni qo'lga kiritdim. Bu ko'nglimda eng yorqin, faraxbaxsh tuyg'ularni uyg'otdi. Bayramda Prezidentimizning tabrigini tinglab, o'zimdandan, kasbimdan va bizga bildirilayotgan yuksak ishonchdan yanada kuch oldim.

Chindan ham bugun harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy sohada harbiy xotin-

qizlar salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. "Xalq va armiya yakdili" tamoyili asosida olib borilayotgan ishlar harbiy qism va muassasalarning eshiklarini yoshlar va ayollar uchun keng ochib berdi. Bir so'z bilan aytganda, armiya va xalq birligi tobora mustahkamlanib bormoqda.

— Shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, yangilmas sarkardalarimiz jasorati, ularning "Bilagi zo'r — birmo yengar, ongi va yuragi zo'r esa — mingni" degan dono o'g'ilari bizga aynan mana shunday hayotiy haqiqatni uqtiradi. Sohadagi ulkan o'zgarishlarning ijobiy natijasi sifatida O'zbekiston harbiylarining xalqaro yirik harbiy-sport musobaqalarida bir necha yillardan buyon salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritayotgani barchamizni quvontiradi, — deydi katta leytenant Islomjon Qo'chqorov. — 2023-yilda ham Mudofaa vazirligi qo'shinlari

bir qancha muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Xususan, Amerikaning Missisipi shtatida bo'lib o'tgan "Eng ilg'or jangchi" musobaqasida ishtirok etgan askar yigitlarimiz barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tib, faxrli birinchi o'rinni egalladi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada o'tkazilgan "Kembriya patruli" musobaqasida 44 davlatning 118 jamoasi o'rtasida 2-o'rinni va Koreya Respublikasida o'tkazilgan "Xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik" musobaqasida 5 davlatning 13 jamoasi o'rtasida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Bir so'z bilan aytganda, ortda qolayotgan har bir kun shunchaki o'tib borayotgani yo'q.

Darhaqiqat, keng ko'lami islohotlar natijasida birgina o'tgan yil davomida Mudofaa vazirligi qo'shinlari mutaxassislari xalqaro arenadagi turli harbiy musobaqalarda qatnashib, faxrli o'rinnlarni egalladi. Sohadagi ulkan o'zgarishlarning ijobiy natijasi sifatida



Rashid Galiyev olgan suratlar.

O'zbekiston harbiylarining "Xalqaro armiya o'yinlari", "Kembriya patruli" (Angliya), "Eng yaxshi jangchi" (AQSH) va boshqa yirik harbiy-sport musobaqalarida bir necha yillardan buyon salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritayotgani barchamizni quvontiradi.

Joriy yil 12-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va harbiy-ma'muriy sektorlarning 2023-yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo'ljallangan vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda davlatimiz rahbarining "Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur", degan so'zlari hamda mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini qayta ko'rib chiqish yuzasidan bergan tegishli topshiriqlari, navqiron avlod vakillarining yurtimizdagi islohotlar jarayonidagi ishtirokini oshirish borasidagi fikrlari kelajak yoshlarining hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

— O'tgan yili AQSHda o'tkazilgan "Eng ilg'or jangchi — 2023" musobaqasining mutlaq g'olibi bo'lib, shohsupaga ko'tarilganida, birgina shu yutuqning mas'uliyati nechog'liq sharafli, ulug'vor va mas'uliyatli ekanini yanada teran his etdim, — deydi kichik serjant Azamat Kenjayev. — To'g'ri, biz taraqqiyot asrida yashayapmiz. Ammo yoshlarga imkoniyatlar yaratilmasa, qo'llab-quvvatlanmasa, bizlar yuksak marralarni zabt eta olmaymiz. Bugungi bayram tantanasidan foydalanib, ushbu imkoniyatlar boshida turgan Prezidentimizga rahmat aytaman va barcha yurt posbonlarini tabriklayman.

Tantanalni tadbirda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboeva, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddinjon Isoilov ishtirok etdi.

Gulichehra DURDIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

SHIMOLDA BAYRAM SHUKUHI

Qoraqalpog'iston Respublikasi ham mamlakatimizning boshqa hududlari kabi tub o'zgarishlar, yangilanishlar og'ushida tobora chiroy ochib bormoqda. Yangi O'zbekistondagi har bir o'zgarish, eng avvalo, mehnatkash xalqimiz uchun foydali bo'lishi, ularning yumushini osonlashtirishi, ko'p yillarga xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo'layotir. Zero, yaratilayotgan barcha qulaylik, bunyod etilayotgan inshootlar xalqimizga xizmat qilib, yurtimiz taraqqiy etishiga hissa qo'shyapti.

Mudofaa vazirligi tizimida ham shunga monand ulkan yangilanish, bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi yurt himoyachilarining ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Tizimda diqqatga sazovor asosiy o'zgarishlarni qo'shinlarni zamonaviy qurol-aslahalar va harbiy texnikalar bilan butlash, yurt himoyachilarining kasbiy mahoratini oshirish, qo'shinlar tayyorgarligiga ilg'or texnologiya va axborot tizimlarini joriy qilish, qolaversa, bunyodkorlik ishlarida ko'rish mumkin, albatta. Eski bino va inshootlar o'rnida bugun yangilari bunyod etilib, yillar davomida ta'mirlab holatga kelib qolganlari kapital ta'mirdan chiqarilayapti.

— Nukus hududiy uy-joydan foydalanish qismida kapital ta'mirdan chiqarilgan avtomobil texnikalarini saqlash parkini foydalanishga topshirdik, — deydi Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, general-mayor Farhodjon Shermatov. — Ushbu obyekt 1990-yilda bunyod etilgan bo'lsa-da, shundan buyon umuman ta'mirlanmagan. Keyingi yillarda bu yerdagi yaroqsiz holga kelib qolgan texnikalarni yangilash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Mudofaa vazirligi tomonidan "Kamaz" rusumli avtotransport bazasiga o'rnatilgan 16 tonna yuk ko'tarishga mo'ljallangan avtokran, "WZ-30-25" rusumli yuklovchi traktor, suv tashishga mo'ljallangan texnikalar taqdim etildi.

Ta'mirlalab ushbu obyektida maxsus texnikalarni saqlash, texnik xizmat ko'rsatish, umuman olganda, ularni tabiiy iqlim sharoitidan asrab-avaylashda qator muammolar bo'lgan. Texnikalar turar joylari, ya'ni bokslardagi istitish tizimi nosozligi, g'isht

va beton to'siqlarning yemirilishi oqibatida qahraton qish sovug'i sababli texnikalarni o't oldirish ham katta qiyinchilik tug'dirgan.

Mudofaa vazirligi tomonidan ajratilgan mablag' evaziga mazkur texnikalar parki yangidan faoliyat boshladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Kapital qurilish-ta'mirlash ishlari natijasida bokslarda istitish tizimi o'rnatilib, texnikalarni saqlash sharoiti yaxshilandi. Endilikda parkda ilgari bo'lmagan mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tarmog'i, ustaxonalar, haydovchilarni tayyorlash sinfi, park bo'yicha navbatchilik xonalari, haydovchilar dam olishi va yuvinishi uchun xonalar barpo etildi. Bularning barchasi maxsus texnikalarni soz va shay holatda saqlab turish, ularga sifatli texnik xizmat ko'rsatish, bir so'z bilan aytganda, harbiy xizmatchilarga zamonaviy sharoit yaratish maqsadida bunyod etildi.



Yordamchi xo'jaliklardan qo'shimcha daromad

Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism va muassasalarga birkiritilgan bo'sh yerlardan daromad manbai sifatida unumli foydalanish, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida parrandachilik, dehqonchilik, baliqchilik, asalarichilik, chorvachilik uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.



Uch avlod uchrashuvida mamlakatimiz Mudofaa hamda Favqulodda vaziyatlar vazirliklari tizimida ko'p yillik mehnat qilgan, hayotiy tajribaga ega faxriylar, ayni vaqtda armiya saflarida xizmat qilayotgan ofitser va serjantlar yosh askarlarga bugungi tinchligimiz, osoyishtaligimiz biz uchun eng oliy ne'mat ekanini hayotiy misollar yordamida tushuntirib berdi, uni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimiz ekani ta'kidlandi.



— Issiqxona qurilgan yer maydoni yerdan umuman foydalanilmagan, — deydi Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati boshlig'i, podpolkovnik Timur Narziyev. — Yerning unumdorligini oshirish maqsadida o'g'itlar bilan boyitilgan unumli tuproq olib kelinib, undan keyingina ekin ekilishi sinovdan o'tkazildi. Mazkur usul yaxshi samara berdi, o'tgan yili bodringdan yaxshigina daromad olindi. Ekinlarni tomchilatib sug'orish tizimi esa suvni tejash hamda yetarli miqdorda namlikni saqlashda samarali bo'lmoqda. Bu yilgi mavsumda esa 7 mingdan ziyod pomidor ko'chati ekilib, mavsum boshlanganidan buyon 6 tonnaga yaqin hosil yig'ib olindi. Shuningdek, 2023-yilda harbiy shaharcha hududidagi yana 30 sotixdan ortiq bo'sh turgan yer maydonida bunyod etilgan issiqxonada ham bodring hosilga kirdi. Bu yil hosildan unumli daromad olish rejalashtirilgan, hozirgacha 2 tonnadan ortiq bodring terib olindi.

Issiqxonadagi ekinlarni parvarishlash hamda yetilgan hosilni terish uchun alohida yollanma ishchi kuchidan foydalanilmoqda. Asosiysi, sabzavotlar savdosidan tushayotgan daromadning barchasi harbiy qism va muassasalarni rivojlantirish, harbiy xizmatchilarga subsidiya asosida kreditlar ajratish, shaxsiy tarkib o'qatlanish ratsionini yaxshilashga yo'naltirilmoqda. Qolaversa,

yetishtirilayotgan meva va sabzavotlar harbiy xizmatchilar oila a'zolariga arzonlashtirilgan narxlarda ham sotilmoqda.

Uch avlod uchrashuvi

Qurolli Kuchlarimiz tashkil topganining 32 yilligi hamda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni bayramini har yilgidek ko'tarinki ruhda yurtimiz bo'ylab o'tkazilayotgan "Vatanparvarlik oyligi"da turli ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hamda badiiy tadbirlar, uchrashuv va musobaqalarda mardlar kasbi ulug'lanib, yurt himoyasiga mas'ul insonlarning sharafli va mashaqqatli xizmati e'tirof etilmoqda.

Uch avlod uchrashuvida mamlakatimiz Mudofaa hamda Favqulodda vaziyatlar vazirliklari tizimida ko'p yillik mehnat qilgan, hayotiy tajribaga ega faxriylar, ayni vaqtda armiya saflarida xizmat qilayotgan ofitser va serjantlar yosh askarlarga bugungi tinchligimiz, osoyishtaligimiz biz uchun eng oliy ne'mat ekanini hayotiy misollar yordamida tushuntirib berdi, uni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimiz ekani ta'kidlandi.

Subhat davomida harbiy xizmatchilar ko'p yillik tajribaga ega hamda bugun ham armiya hayoti bilan hamnafas yashab kelayotgan ustozlar bilan muloqot qilib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi. Birgalikda qo'shiqlar kuylab, xizmatdagi yutuqlari haqida o'troqlashdi.

Shuningdek, harbiy qism mehmonlari yurt himoyachilari bilan shaxmat-shaxsha bo'yicha do'stona turnirda ishtirok etib, adabiyotga boy kutubxonada kitob mutolaasining foydali jihatlari haqida fikrlashdi.

Harbiy qismda ikki yil oldin bunyod etilgan sport mashg'ulotlari zali yoshi ulug' faxriylarda katta qiziqish uyg'otdi. Ular o'zlarini xizmat qilgan yillarda bunday sharoitlar bo'lmagani, buning qadriga yetish kerakligini ta'kidlandi.

Umuman olganda, mamlakatimiz mudofaa tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida harbiy qismlarda zamon talablariga mos sharoitlar yaratilayapti, armiyamiz saflarida harbiy xizmatni o'tash har bir yosh orzu-maq-sadlarining ajralmas qismiga aylandi. Bugun minglab ana shunday vatanparvar, mard va jasur yoshlar yurtimiz shimolida Vatanimiz tinchligini asrash, shahadlarimiz daxlsizligini ta'minlash uchun xizmat qilmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Buyuk o'zbek yo'li

BIZ NEDAN TARAQQIY ISTARMIZ?!

Yoxud vatanparvarlik bo'lmagan joyda farovonlik yo'llari yopiladi



Salim DONIYOROV

Boshlanishi 1-betda

Endi savol tug'iladi: bu xuruj iskanjasi qarshi qanday kurashiladi yoki uning "vaksinasi" bormi?

Buning uchun ikki muhim g'oyaviy hodisani ulg'aytirish kerak bo'ladi. **Birinchisi — makon tushunchasi va daxldorlik tuyg'usi. Ikkinchisi — milliy o'zlik va milliy g'urur tarbiyasi.**

Makon bu — Vatan. Jamiyatlashuv ildizlari asrlar osha kishilar ongini takomillashtirib keladi. Odam avlodlari taalluqlilik jihatidan o'zaro jipslashadi, shunda ichki va tashqi muhit paydo bo'ladi. Shu tariqa navbat davlatchilik muhofazasiga yetadi.

Kim qaysi zaminda tug'lsa, o'sha joy uning Vatani bo'lishi ayon haqiqat. Ammo biz bu o'rinda boshqa bir muhim mushohadaga — milliy davlatchilik qismatiga navbat bermoqdamiz. Davlatchilikni qismat deymiz. Boisi, vatan ham, jamiyatdagi qadriyatlar va milliy yashovchanlik taqdiri ham, avvalo, davlat atrofida jam bo'ladi, davlatchilik an'analar bilan takomiliga yetadi va saqlanadi. Insoniyatning ilk asrlarida milliy xavfsizlik ehtiyoji paydo bo'lishi bilan davlatchilik an'analar bardavom bo'lib kelmoqda. Shu ma'noda, insonlar o'z makonini sevishi, qadrlashi va qalb tumoriga aylantirishi zaruriy ehtiyojdir. Ikkinchi tomondan, vatanga daxldor bo'lish ham insoniy burch sifatida talqin qilinishi kerak.

Bugungi dunyoda mutlaqo yangi mafkura shakllanmoqda. Bu haqda Prezidentimiz ta'kidlaganidek, azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o'z maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o'tkazish, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar yo'liga o'tganiga hammamiz guvohimiz.

Agar shu nuqtay nazardan xulosa qiladigan bo'lsak, maqolamiz avvalida aytganimizdek, hayotdagi hech bir yutuq, ayniqsa, tinchlik-totuvlik va hamjihatlik to'li o'z o'zidan, osonlikcha bo'lmayotganini anglab,

yatlar, hissiyotlar ko'chib yuradi. Faqatgina u sustlashishi yoki aksincha, faollashishi mumkin. Shu bois, bizda nasl-nasabga keng e'tibor bilan qaraladi. Bundan kelib chiqadiki, ota-ona g'ururli bo'lsa, farzand ham shunday kamol topadi.

Milliy yuksalishning tarbiyaviy ahamiyatiga keladigan bo'lsak, atrof-muhit va tashqi ta'sirlar kuchini e'tirof etish kerak. Bir farzand dunyoga kelishi va uning qobil inson, vatanparvar va zo'r iqtidor egasi bo'lib kamol topishi jamiyat uchun katta yutuqdir. Chunki bunday farzandlardan hamma birdek manfaat ko'radi, baraka topadi. Taraqqiyot yangi manzillar sari dadil odimlay boshlaydi.

Xalqimizda ajoyib maqol bor: "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona". Bu necha-necha asrlar xulosasi. E'tibor bersak, o'zbek jamiyati mahallalari hamisha tarbiya maskani bo'lgan. Mahallalarda tarbiyani kim ta'minlagan? Albatta, kayvonilar, ya'ni katta avlod vakillari. Darvoqe, etnotariximizdan ham ma'lumki, oilada farzand tug'lsa, ota-ona ta'minotchi, bobo-momo esa tarbiyachini bajarib kelgan.

Shunday ekan, yana bir dolzarb savol paydo bo'ladi. Bugun bu boradagi ahvolumiz qanday? Taomillar-chi?

Bir qarashda hozir ham shundaydek. Oilada kattalarning o'rni bor, mahalla faollari bor, kayvonilarimiz sog'-salomat. Lekin, ochiq aytilish kerak, haqiqiy ahvolumiz unchalik ham maqtangulik emas.

Tarbiyamizda milliylik, vatanparvarlik ruhi o'tmaslashib borayotir. Bu xavotir bilan aytishimiz kerak bo'lgan og'riqli muammoga aylanib ulgurdi. Ta'bir joiz bo'lsa, milliy masaladur.

O'zingiz aytgandek, bugun qaysi bir mahallani haqiqiy ma'noda, alohida g'urur bilan vatanparvarlik maskani sifatida o'rnatqilib ko'rsata olamiz?

Biz yolg'on maqtovlar, soxta mulozamatlar zamonidan o'tdik. "Qog'oz taraqqiyot" davri ortda qoldi. Lekin ruhimiz u davr qurshovidan ozod bo'ldim? O'zimizni o'zgartira oldikmi? Bugun barchamizni mana shu savollarga o'ylantirishi kerak.

Ma'naviy qiyofasizlik ham shunday. Hozir dunyodagi katta geosiyosatni axborotlar boshqarmog'ida. Ayrim mamlakatlar, millatlar boshiga tushgan kulfatu qayg'u sababchisi ham axborot urushi oqibatidan ekanini barchamiz anglashimiz zarur.

Zamon tahlikaga to'lib borayotgani haqida ko'p gapiramiz. Ammo bu tahlikalarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish borasida ko'p ham jiddiy qayg'urmayapmiz, aslida.



ko'p o'tkazib turish kerakka o'xshaydi, nazarimizda.

Shunday ekan, yana bir dolzarb savol paydo bo'ladi. Bugun bu boradagi ahvolumiz qanday? Taomillar-chi?

MA'NAVYI TARAQQIYOT SAODATI

Ba'zi kasallikning so'rovi bo'lmaydi. Boshi yoki tishi og'rib yotgan tani-shimizning uyiga hol so'rashga bormaymiz. Qachonki u shifoxonaga tushib, og'ir ahvolda kelsagina, qayg'urgandek bo'lamiz.

Ma'naviy qiyofasizlik ham shunday. Ko'chada ketayotgan kishidan ma'naviyatning qiyofasizligi qani, deb so'ralmaydi. Qalbingizda kemtiriklik bormi, atrofda yovqah hodisalar dan tanangiz zirqiramayapti, deya savolga tutmaymiz. Nihoyat, ma'naviy qiyofasizlikning oqibatini zil-zambil qilib ko'tarib yurishga majbur bo'lamiz. Bu millat uchun inqiroz yo'li ekanini bugun anglashimiz shart, aks holda, bizni boshqalar o'z hukmiga soladi.

Mana shuning uchun ham Prezidentimiz ma'naviy taraqqiyotni bir zum bo'lsa-da, e'tiborsiz qoldirmayapti. Xavfsizlik kengashining kechagi yig'ilishida bunga yana bir bor amin bo'ldik.

Globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani alohida ta'kidlandi.

— Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur, — dedi Prezidentimiz.

Amalda Vatan himoyachisi bo'lishning zamirida katta hayotiy haqiqatlarni anglamog'imiz kerak bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida. Ular nimalardan iborat va hayotimizda qanday aks etishi zarur?

Birinchisi — qalb tarbiyasi. Farzandlarimizni hali bolaligidan vatanga muhabbat hissi bilan tarbiyalashimiz kerak. Yuragida vatanga, insonlarga katta muhabbat bilan ulg'aygan o'g'il-qiz kun kelib, faqat yaxshiliklar sohibi bo'ladi. Bunday avlodni hech

bir hiyla-yu nayrang o'z doimiga tortolmaydi. Ular aldovlarga, yolg'onlarga uchmaydi, zarga ham, zo'rga ham bo'yin egmaydi.

Ikkinchisi — fidoyilik va jonbozlik ruhi kuchaytirish. Ishda, ko'chada, mahallada, turli yig'inlarda odamlar bilan muloqot qilar ekansiz, hissiz va jo'shqin qiyofalarga duch kelasiz. Har ikki toifani loqaydlik va jonbozlik, beg'amlik va fidoyilik ajratib turadi. Bundan xulosa shuki, jamiyatda toki loqayd va beg'am odamlar uchur ekan, demak, milliy tarbiyamizda kemtiriklik bor. Agar yoshlarimizda ham fidoyilik va jonbozlik ruhi sezilmayotgan bo'lsa, biz bunga butun xalq bo'lib kurashmog'imiz kerak.

Bugun biz jadal taraqqiyot etyapmiz. Lekin taraqqiyot yo'li shundayki, uni bir zum o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Shu ma'noda, bir haqiqatni juda teran anglab olish vaqti allaqachon kelgan. Vatanparvarlik bo'lmagan joyda farovonlik yo'llari yopiladi, madorsiz hayajonning quvvati ham haminqadar bo'ladi.

Uchinchisi — tongni qarshilashni o'rgatish. Ota-bobolarimiz har tongni shukrona aytish bilan boshlaydi. Bu — milliy an'ana.

Bugun qurolli mojarolar avj olgan, e'tiqodiy to'qnashuvlar urchiyotgan mamlakatlarda yashayotgan odamlar bir tun bexavotir uxlashni orzu qiladi. Yaratgandan tinchlik-omonlik so'rab yolvoradi. Farzandidan judo bo'lgan ota-onalarning nolasini eshitishdan og'ir azob yo'q bu dunyoda. Shunday ekan, har bir inson, u kattami-kichikmi, boymi yo kambag'al, avvalo, tinchlikning qadriga yetishi kerak va bu muqaddas e'tiqodimizga ham maqbul ishidir.

Axir qayerdiki nimadir qadr topsa, uning atrofida faqat ezgu ishlar bo'lishi bizga yaxshi ma'lum. Shu bois, farzandlarimiz qalbidan shukronalik hissini cho'g'lantirib turish vatanni sevishga chorlaydigan e'ta'sirchan vositadir.

Bu, albatta, bir qarashda oson ish, yengil choradek tuyuladi. Lekin amalda esa hamma ham bu maqomga erisha olmayotganini, achchiq haqiqat bo'lsa-da, aytish kerak. Sababi nima, deb so'rasangiz, javobimiz bitta bo'ladi — ma'naviy yetuklik yetishmaydi.

Makon bu — Vatan. Jamiyatlashuv ildizlari asrlar osha kishilar ongini takomillashtirib keladi.

Odam avlodlari taalluqlilik jihatidan o'zaro jipslashadi, shunda ichki va tashqi muhit paydo bo'ladi. Shu tariqa navbat davlatchilik muhofazasiga yetadi.

Shunga qaramay, bizda mustahkam tarixiy zamin bor. Bu borada biz jadal boshlaymiz o'g'itlari, ularning fitratidan saboqlanishimiz kerak bo'ladi.

Davlatimiz rahbari har bir O'zbekiston fuqarosi, avvalo, rahbarlar xalqimiz, ona yurtimiz oldidagi mas'uliyatni chuqur his qilib, chinakam vatanparvar bo'lishi shart! O'tgan asr boshida kurash maydoniga chiqqan jaded bobolarimiz ko'targan g'oya nima edi? Albatta, fidoyilik va vatanparvarlik bo'lgan.

Shu ma'noda, ulug' mutafakir, jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston xalqining manfaati uch narsaga bog'liq, deb aytdi. Birinchisi — g'alla, ya'ni oziq-ovqat xavfsizligi, ikkinchisi — askar, uchinchisi — harbiy tizimni shakllantirish, deb yuz yil oldin aytdi. Uchinchisi — harbiy tizimni shakllantirish, deb yuz yil oldin aytdi. Uchinchisi — harbiy tizimni shakllantirish, deb yuz yil oldin aytdi. Uchinchisi — harbiy tizimni shakllantirish, deb yuz yil oldin aytdi.

Mana shu uch narsa bugun ham bizni saodatga eltishga shubha-gumonimiz yo'q. Boisi, O'zbekiston zaminini serhosil, mehnatkash va tadbirkor xalqimiz bu tabiiy ne'matdan unumli foydalanish hadisini olgan. Bugungi milliy armiyamiz qudrati ham hech kimdan kam emas. Bizning askar yigitlar kuchiga, aqliy quvvatiga dunyo tan berayotganini ko'rib turibmiz.

Harbiy tizimni shakllantirish borasida ham faxrlansa arzigulik ishlarimiz bor. Keyingi yillarda "Xalq va armiya — bir tan-u bir jon", degan tamoyil asosida harbiy-ma'naviy muvaffaqiyatlarga erishdik, deya baralla ayta olamiz.

BOTINIY CHAQIRIQ

Yana bir o'tli savolni o'rtaga tashlaymiz: fuqarolik pozitsiyasi, deganda nimani tushunamiz?

Keling, bu savolga javobni tashqaridan izlaylik. Inson fe'li ba'zan tor bo'ladi. Shu bois, xalqimiz o'z eposlarida keng fe'llilik haqida ko'p va xo'p gapirgan. Ammo besh qo'l barobar emas. Yaxshilikni, yaxshi xislatlarni, yaxshi yutuqlarni ko'rolmaslar ham bor. Lekin ular orasida yurtga, millatga tosh otish, milliylikka daxl qilish "fazilat"ini kechirib bo'lmaydi.

Bu yerda bir muhim jihadni unutmaslik kerak. Murakkab zamon talablari va tabiatdagi jiddiy o'zgarishlar davlatlar oldiga nihoyatda dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Vaziyat shu darajada murakkabki, hatto yaqin kelajakda yashab qolish ilinjidagi siyosiy harakatlar

hech narsadan tap tortmaypti. Bor imkoniyatlar, ular qanchalik razil bo'lmasin, ishga solinmoqda.

Shunday vaziyatda hech bir munosabati be'e'tibor qoldirib bo'lmaydi. Bu borada bizning fuqarolik pozitsiyamiz qoniqarlami, degan savol bo'lishi tayin, albatta.

Ha, to'g'ri, bugun biz jadal taraqqiyot etyapmiz. Lekin taraqqiyot yo'li shundayki, uni bir zum o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Shu ma'noda, bir haqiqatni juda teran anglab olish vaqti allaqachon kelgan. Vatanparvarlik bo'lmagan joyda farovonlik yo'llari yopiladi, madorsiz hayajonning quvvati ham haminqadar bo'ladi.

Demak, biz, barchamiz, butun xalqimiz bilan jaded bobolarimiz kabi tilda, fikrda, ishda hamjihat bo'lib harakat qilishimiz zarur. Bu ezgu va olijanob g'oya butun xalqimiz, avvalambor, farzandlarimiz qalbidan chuqur joy egallashi kerak.

Shu bois, Prezidentimiz kechagi yig'ilishda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini qayta ko'rib chiqish yuzasidan tegishli mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi. Navqiron avlod vakillarining yurtimizdagi islohotlar jarayonidagi ishtirokini oshirish, ular o'z intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoitlar yaratish muhimligiga e'tibor qaradi.

Shuningdek, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida media makonda olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi ishlarini kuchaytirish vazifasi ham qo'yildi.

Bu oddiy gaplar emas. Bee'tibor bo'ladigan mavzu ham emas. Har birining zamirida qudratli evlilik yo'li, yuksalish falsafasi bor. Zero, ularning har biri bizni yurug' manzillar sari eltadigan mas'uliyatdir.

Bugun oldimizda nihoyatda mas'uliyatli vazifalar turibdi. Ularning har biri bizni doim o'gohlukka, ma'naviy yuksalikka, eng muhimi, fidoyilik va vatanparvarlikka da'vat etishi kerak. Shu ma'noda, har birimizning o'z botiniy chaqirig'imiz bo'lsin, deymiz. Ular savol bo'lib yangrashi ham mumkin: **aziz Vatanimiz taraqqiyoti uchun nima qilyapmiz? Atrofimizdagi o'zgarishlarga qanday hissa qo'shaymiz? Ich-ichimizda, qalbimizda yurt qayg'usi bormi? Tinch va osoyishta mamlakatimizga munosiblik baxtini sezayapmizmi? Va nihoyat — yangi O'zbekistonimizni sevayapmizmi?**

Bu savollar har birimizni har on o'ylantirishi, cho'chitishi, uyg'otishi, sergak torttirishi va nihoyat hayotiy xulosalar chiqarishga chorlab turishi kerak.

Milliy taraqqiyotimiz bugungiday jo'shqin kayfiyat bilan davom etishi uchun ham dunyoda o'z o'rnimizni, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy yo'limizni mustahkamlash uchun ham bu savollar javobini o'zimizdan izlashdan to'xtamaylik. Toki, vatanparvarlik hissi har birimiz uchun munosib taqdir yo'li bo'lsin!



tushunib yetish mumkin. Demak, tiriklik qismatining mohiyati va quvvatlanish manbalari ham, avvalo, shukronalik, vatanga sodiqlik, o'zlikni anglash va milliy g'ururni yuksaltirish asosida namoyon bo'ladi.

Endi milliy o'zlik va milliy g'urur iqtidori haqida gapirsak. Bunday iqtidor qachon paydo bo'ladi va takomiliga yetadi?

Aslida, bu tuyg'u qon suradi. Ya'ni shajaraviy xususiyatga ega. So'ng tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shajaraviy xususiyat, deganimiz sababi shundaki, bobo-momo, ota-ona, umuman, ajdodlar fe'lidagi xususi-

Hozir bu fikrlarni bejiz aytmayapmiz. Chunki gapimiz mahallalardagi ma'naviy ahvol, vatanparvarlik muhiti haqida borayotgan edi. Bizning farzandlarimiz turg'unlik davri, mustabid tuzum zalolatini ko'rmagan. Ilohim, ko'rmasin ham! **Ammo tarix saboq olish, taraqqiyot etish maqsadida yozilganidek, yodi yoqimli bo'lmagan u kunlardan yoshlarimiz o'ziga xulosa olishi, bugun qanday zamonda yashayotganimizni aziz vujud bilan his qilishi uchun ham mahallalarda nuroniylarimiz ishtirokida gi ma'naviy-ma'rifiy suhbatlarni ko'p-**

Tahlil va taqqos

Turizm eksporti

IKKI MILLIARD DOLLARDAN OSHDI

Bu ko'rsatkich soha jadal rivojlanayotgani, iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanayotganidan dalolat

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda sayyohlik tarmog'ini rivojlantirish yo'lida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Gap sayyohlik haqida ketganda, avvalo, shuni ta'kidlash o'rinali, xorijiy davlatlardan tashrif buyuruvchilar uchun viza rejimi soddalashtirildi. Xususan, ayni paytda 93 davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 davlat uchun esa besh kunlik tranzit vizasiz kirish, shuningdek, 76 davlat uchun turizm vizalar berishning yangillashirilgan tartibi belgilandi.

55 yoshga to'lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatga yurtmizga keluvchi XZR, AQSH va Vyetnam fuqarolari uchun vizasiz kirish rejimi joriy qilindi. Shuningdek, "Vatandosh", "Student visa", "Academic visa", "Medical visa" va "Pilgrim visa" kabi yangi kirish viza turlari belgilandi.

Bundan tashqari, sayyohlar xavfsizligini ta'minlash uchun turizm politsiyasi tashkil etildi. Qulay sharoit yaratish maqsadida esa joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni 142 mingtaga yetkazildi, 70 ta yangi sayyohlik marshrutlari ochildi, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi.

"Amirsoy" qishki kurorti, "Afsonalar vodiysi", "Zomin" va "Chorvoq" dam olish zonalarini ko'plab xorijlik sayyohlar e'tiborini tortadigan xalqaro turizm maskanlariga aylandi.

Turizm sohasida tobora o'sib borayotgan rivojlanish jarayonining to'xtamasligini ta'minlash va kechinchalik yanada kuchaytirishning muhim yo'laridan



biri malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yib, takomillashtirib borishdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda bu borada professional mutaxassislar tayyorlash tizimi yaratilgan. Sohaga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari va ularda o'qiyotgan talabalar soni yildan-yilga oshib boryapti. Ushbu oliy o'quv yurtlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ta'lim jarayoni takomillashmoqda. Natijada xalqaro talablarga mos malakali mutaxassislar tayyorlash va turli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, fundamental, ilmiy-amaliy ishlar rivojlanayapti.



Yurtimizda sayyohlik biznesining barcha turlarini rivojlantirish uchun ham qulay sharoit yaratilyapti. Yangi mehmonxonalar qurish va xalqaro brendlarni jalb etish, sayyohlar oqimini ko'paytirish uchun subsidiyalar ajratilmoqda.

An'anaviy turizm tarzi va noyob hunarmandchilikka ega turizm qishloqlari tashkil etilmoqda. Ana shunday hududlardan biri Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog'idir.

Sentob Nurota tumani markazidan 120 kilometr, viloyat markazidan esa 180 kilometr uzoqlikda, Nurota tog' tizmalari orasida joylashgan qishloq bo'lib, bu hududda tabiiy ko'l, zardushtiylik diniga oid qadimiy ibodatxona, bir qator madaniy meros obyektlari, qadimiy qal'alar, toshlarga o'yib ishlangan petrogliflar bor. Shuningdek, qishloq aholining milliy urf-odat va an'analari, turizm tarzi sayyohlarni jalb etadi. Tarix va zamonaviylik uyg'unlashgan bu manzili o'z ko'zi bilan ko'rish uchun qishloqqa dunyoning har burchagidan kelayotgan sayyohlar oqimini tinmaydi.

O'z navbatida, sayyohlar ko'ngilli dam olishi, tarixiy va tabiat obidalari bilan yaqindan tanishishi uchun qishloqda zamonaviy sharoitlar ham yil sayin yaxshilanmoqda. Ayni paytda 3 ta xostel, 20 ta oilaviy mehmon uyi barpo etilgan hamda 15 turdagi turizm xizmatlari yo'lga qo'yilgan. O'tgan yili ushbu qishloq Jahon turizm tashkilotining turizm qishloqlari ro'yxatiga kiritildi. Bu voqea yurtimiz sayyohlik salohiyatining dunyo miqyosida o'ziga xos e'tirofi bo'ldi.

Bundan tashqari, yurtimizda sayyohlik biznesining barcha turlarini rivojlantirish uchun ham qulay sharoit yaratilyapti. Yangi mehmonxonalar qurish va xalqaro brendlarni jalb etish, sayyohlar oqimini ko'paytirish uchun subsidiyalar ajratilmoqda.

O'tgan yili dunyo turizm industriyasining e'tiborga molik yirik tadbiri — Jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasining Samarqandda o'tkazilishi Markaziy Osiyo mintaqasi uchun yana bir katta tarixiy voqea bo'ldi. Mazkur xalqaro jumaguna dunyoning 140 dan ortiq davlatlaridan vakillar tashrif buyurdi. Tadbir doirasida dunyo mamlakatlari o'rtasida turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha qizg'in muloqot va uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

TURIZM XIZMATLARI 2,5 BAROBAR O'SDI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ana shunday keng qamrovli tadbirlar samarasida dunyoning turli davlatlari bilan o'zaro aloqalar yanada rivojlanishi barobarida, turizm tarmog'ida ham o'sishga erishilmoqda. Xususan, 2023-yilda yurtimizga qariyb yetti million sayyoh tashrif buyurdi. Agar taqqoslash uchun aytadigan bo'lsak, 2016-yilda bu raqam 1,3 million, 2022-yilda esa 5,2 million nafarni tashkil etgan edi.

Uzoq davlatlardan kelayotgan sayyohlar oqimi 3-4 barobar oshdi. Misol uchun, bu yil Hindistondan — 3,5 barobar (25 ming), Yaponiyadan — 5 barobar (7 ming), AQSHdan — 2 barobar (14 ming), Italiyadan — 3,5 barobar (17 ming) ko'p sayyoh keldi. Shuningdek, har bir xorijlik sayyohning respublika hududida bevosita sayohat xarajalaridan tashqari sarflaydigan o'rtacha mablag'i 2017-yilda 197 dollarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 309, 2023-yilda esa 330 dollarga yetdi. 2023-yilda turistlarning o'rtaqaroliq kuni 4-5 kuni tashkil etib, o'tgan yilning mos davri (3 kun)ga nisbatan 1,5 barobarga otdi.

Sayyohlar oqimiga mos tarzda turizm xizmatlari ko'rsatish hajmi ham o'sib boryapti. O'tgan 6,5-yilda (2017-yil — 2023-yil iyun) turizm xizmatlari 2,5 barobar o'sib, turizm eksporti 430 milliondan 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi, o'sish — 4 barobar. 2023-yilda turizm eksporti 2 milliard 143 million dollarga yetdi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida bu borada muhim chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, 2024-yil 1-yanvardan joriy etilgan qo'shilgan qiymat solig'ini to'liq qaytarib berish tizimi turizm sohasi rivojlanishining yangi bosqichiga muhim tirgak bo'lishi kutilmoqda. Ushbu yangilanishlar turoperatorlar va xorijlik sayyohlarga sezilarli imtiyozlar beradi hamda O'zbekistonning xalqaro turistik bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Bunday imtiyoz va imkoniyatlar faoliyatini yanada rivojlantirish, sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda muhim omil bo'ladi, — deydi "Dilrabo travel" sayyohlik kompaniyasi bosh menejeri Mahmudali Hakimov. — Kompaniyamiz vodiydagi eng yirik turoperatorlardan biri, tarmog'imizda beshta tuzilma faoliyat yuritaypti. Jumladan, o'zimizning transport tarmog'imiz ham bor. 3 ta avtobus va 15 ta mikroavtobusimiz sayyohlar xizmatida. Jamoamizda 20 dan ko'proq yoshlar ishlayapti, ularning yarmi talabalar. Xodimlarimiz kamida ikkita xorijiy tilni biladi. Jumladan, ingliz va rus tillaridan tashqari xitoy, arab, nemis tillarida ham erkin so'zlashadigan yoshlarimiz bor. Shu bois, viloyatimizga tashrif buyuradigan xorijlik sayyohlarga zamonaviy andazalar asosida xizmat ko'rsatib kelyapmiz. Bundan tashqari, ichki turizm rivojiga ham o'z hissamizni qo'shyapmiz.

Kelgusida faoliyatimizni yanada kengaytirish, turizm klasteri tashkil etish rejalarimiz bor. O'z mehmonxonamizni qumochimiz. Vodiylar shaharlaridan tashqari Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus va Xorazmda ham filiallar tashkil etish rejalarimiz bor. Transport tarmog'imizni ham rivojlantiramiz. Albatta, bu niyatlarimizni ro'yobga chiqarishda davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan sharoitlar juda qo'l kelyapti.



Albatta, bu ko'rsatkichlar turizm jadal rivojlanayotgani, iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanayotganidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, jaziama issiq va izg'irin sovuqda, hamma paxtaga majburiy safarbar etilgan yillarda ham O'zbekiston paxta tolasining eksporti 1 milliard dollardan oshmagan. Hozirgi kunda turizm eksporti bu marradan oshib o'tdi. Agar uni 3-4 barobar oshirsa, jaydari qilib aytganda, paxta ekmasak ham bo'laveradi. Shuningdek, bu o'zgarishlar mamlakatimizning dunyo miqyosidagi nufuzini yanada oshirmoqda. Jumladan,

O'zbekiston Jahon turizm tashkilotining "Eng tez rivojlanayotgan turizm maskanlari" ro'yxatida, shuningdek, mashhur "Gellap" ijtimoiy tadqiqot markazining "Sayyohlik uchun eng xavfsiz davlat" reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz AQSHning "National Geographic Traveler Awards" ro'yxatida "Yil yangiligi" hamda "Gastronomik turizm" nominatsiyalari g'olibi bo'ldi. 2022-yilda "Jahon musulmon sayyohlari indeksi" da "eng kuchli sayohat yo'nalishi" sifatida tan olindi.

IMTIYOZ VA IMKONIYATLAR YANADA KENGAYADI

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida xorijlik sayyohlarga imtiyozlar berish ham joriy etiladi. Jumladan, O'zbekistonda sotib olingan mahsulotlar uchun qo'shilgan

Xorijiy kontragentlar bilan shartnomalar doirasida ko'rsatilgan eksport xizmatlari uchun turoperatorlarga soliq imtiyozlari beriladi. Bu chora-tadbir turoperatorlarni xalqaro bozorda raqobatbardoshroq qiladi va mamlakatga ko'proq sayyohlarni jalb etishga yordam beradi.

Bu o'zgarishlar, o'z navbatida, O'zbekistonning turistik salohiyatini yanada oshirish va xalqaro turizm bozorida o'rni mustahkamlashga xizmat qiladi. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va xalqaro miqyosda yurtimiz obro'sini oshirish yo'lidagi muhim qadamlardan hisoblanadi.

Sayyohlik rivojida transport tarmog'idagi o'zgarishlarning ham o'z o'limi bor. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida 2023-yilda bu sohada amalga oshirilgan ishlohotlar mamlakatimiz infratuzilmasi va iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarmoqda. Misol uchun, aviatsiya sohasida 14 ta rezident aviakompaniyasi mahalliy, shulardan 11 tasi xususiy ekanini muhim ahamiyatga ega. Bu aviatsiya sohasida raqobatni oshirish, xizmatlari sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Mahalliy yo'nalishlardagi parvozlar sonining oshishi, shaharlararo va xalqaro aviaqatnovlarning ortishini ham alohida qayd etish joiz. Xususan, 13 ta mahalliy yo'nalishdagi parvozlar sonining haftasiga 236 taga yetkazilishi mamlakat ichida o'zaro bog'lanishni kuchaytirmoqda. Aviaqatnovlar va tashilgan yo'lovchilar sonining oshishi mahalliy hamda xalqaro miqyosda transport aloqalarini mustahkamlayapti.

2024-yildan boshlab yuk vagonlari va konteynerlarni taqdim etish hamda yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlarda yo'lovchilarni tashish xizmatlari tariflarini bozor tamoyillari asosida tartibga solish mexanizmi o'tish mamlakatning temir yo'l transportini ham yanada samarador qiladi. Aviatsiya va temir yo'l transporti sohasidagi bu kabi o'zgarishlar ichki va xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.



qiymat solig'ini qaytarib berish yo'lga qo'yiladi. Bu sayyohlarni mamlakatda ko'proq xarid qilishga undash orqali iqtisodiyotga pul oqimini ko'paytirishni ta'minlaydi.


MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

IJROSI SAMARASI

Prezidentimizning 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sohadagi ishlar rivojida muhim dasturlamal bo'lmoqda. Mazkur qaror asosida 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida turizmni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan edi. Barcha hududlarda uni bajarish yuzasidan muhim loyihalar amalga oshirildi. Xususan, Qashqadaryo viloyatida o'tgan yil mobaynida 30 dan ortiq joylashtirish vositalari, jumladan, 5 ta mehmonxona, 15 ta xostel, 12 ta oilaviy mehmon uyi tashkil etildi. Shuningdek, turoperatorlar soni 23 tadan 36 taga yetkazildi.

Kashkadaryatravel.uz saytini takomillashtirish orqali saytda turizm salohiyatiga oid ma'lumotlarni muntazam joylashtirib borish evaziga aholining mustaqil ravishda viloyat bo'yab sayohat qilishi uchun yetarli ma'lumotlar bazasi shakllantirildi, — deydi Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasi bo'lim boshlig'i Shahzoda Xidirova. — Viloyatning sayyohlik markazlaridan biri bo'lgan Shahrisabz shahridagi avtoshohbekatda "Turizm bekat" tashkil etildi. Qarshi shahrining Nasaf ko'chasida 74 ta va Shahrisabzning tarixiy maydon hududidan o'tuvchi ko'chada 35 ta xizmat ko'rsatish obyekti tashkil etilib, ushbu ko'chalar 24 soat faoliyat yurituvchi "turizm ko'chasi"ga aylantirildi.

Bundan tashqari, turoperatorlar bilan hamkorlikda viloyatning turizm salohiyati yuqori huddarlari bo'yib 3 tilda (o'zbek, rus, ingliz)



Bu ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida mahallalardagi hokim yordamchilari ishtirokida turizm salohiyatini oshirish bo'yicha o'quv seminarlari tashkil etildi, viloyatning "turizm xaritasi" va 65 ta madaniy meros obyektlarining 3 tildagi kontentlari yaratildi.

Sohada kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilyapti. Shu maqsadda Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi rekonstruksiya qilindi hamda turizm va unga yondosh sohalarda yiliga 330 nafar mutaxassis tayyorlash imkoniyati yaratildi. Amalgal oshirilgan ana shunday keng qamrovli ishlar natijasida o'tgan yili viloyatda mahalliy sayyohlar soni 2,1 million, xorijlik sayyohlar soni esa 222,3 ming nafarga yetdi, turizm xizmatlari eksporti 44,9 million dollarni tashkil etdi. Turizm va unga yondosh sohalarda qariyb 17,5 ming yangi ish o'rni yaratildi.

GLOBAL TASHABBUSLAR YUKSAK MARRALARGA ZAMIN YARATADI



Bugun milliy va xalqaro ekspertlar mamlakatimizning rivojlanish odimlari haqida fikr yuritganda, O'zbekistonning nafaqat milliy va mintaqaviy, balki dunyo miqyosida muhim ahamiyat kasb etadigan global tashabbuslari haqida tez-tez o'xtalyapti. Bu jihatlarda turizm sohasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, Prezidentimiz o'tgan yili Samarqandda bo'lib o'tgan Jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasi ochilish marosimida so'zlagan nutqida bu borada ko'plab taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Avvalo, global turizmning eng dolzarb muammosi bo'lgan turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta'minlash g'oyasi o'rtaqaroliq tashlandi.

Zero, bugun dunyoning turli mintaqalarida ro'y berayotgan nizolar tinchlikka raxna solibgina qolmay, iqtisodiyotning muhim asosi bo'lgan turizm rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Davlatimiz rahbari xalqaro minbardan turib, bunday ayanchli holatlarning oldini olish uchun barchani hamjihatlik va yakdillikka chorlab, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish taklifini ilgari surdi. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro harakatlar dasturini qabul qilish taklifi jahon ommasi hukmiga havola etildi.

Shuningdek, "Yashil" turizmni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta'sis etish, 2025-yilgi "Butunjahon inklyuziv turizm yili" deb e'lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish, Jahon turizm tashkiloti huzurida sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish, Toshkentda jahon sayyohlar turizmi sammitini o'tkazish, yetakchi ommaviy axborot vositalari,

jurnalistlar va eng yaxshi sayohat blogerlarini o'zida birlashtiradigan global media-kampusini tashkil etish kabi tashabbuslar dunyoda tinchlik, taraqqiyot va farovonlikka erishishda muhim qadam bo'lajak.

Shuningdek, mamlakatimizda bunday global loyihalar orqali belgilangan vazifalarni o'z vaqtida ijro etish, yurtimizning sayyohlik salohiyatini yanada oshirish mumkin bo'ladi. Umuman, bu borada ham yuksak marralar ko'zlangan. Xususan, 2030-yilga borib, xorijlik sayyohlar sonini 15 millionga, ichki turizm oqimini esa 25 millionga yetkazish reja qilingan. Ana shunday yuksak marralarga erishish uchun qator dastur va loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Jumladan, yurtimizning madaniy turizm salohiyatini oshirishga katta e'tibor berilyapti.

Bundan tashqari, mintaqamiz davlatlari bilan qo'shma sayyohlik yo'nalishlarini yaratish, Markaziy Osiyoda transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish, xususan, "Bir tur — butun mintaqa" dasturini amalga oshirish rejalaritirilgan. Tibbiy, ekologik, gastronomik, etno, ekstremal va boshqa turizm yo'nalishlarini rivojlantirish ham e'tiborda. Ana shunday keng qamrovli loyihalarni ro'yobga chiqarish hisobiga kelgusida kamida 1 millionta yangi ish joylari yaratish maqsad qilingan. Yangi ish o'rni yaratilishi esa yurtimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xalqimizning turmushini obod etish, aholi bandligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Salomatlik – el boyligi

Salomatlik — hech bir davrda e'tibordan chetda qolmaydigan, hamisha dolzarb mavzu. Qadimgi yunonlarda "Tibbiyotning oliy maqsadi — salomatlikdir", degan qoida bo'lgan. Biroq shifokorlar uzoq yillar faqat kasallikni davolashga e'tibor qaratgan. Insonning individual xususiyatlari va salomatligi zaxirasini o'rganadigan ilmiy asoslangan tamoyillar mavjud bo'lmagan.



VALEOLOGIYA
yoxud bizda nega dorixonalar ko'p?

Tibbiyot sohasida kadrlar, ixtisoslashgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va dori vositalari sonining ortishi aholi salomatligi barqarorligini ta'minlashda unchalik ham samara bermayotgani tobora ayon bo'lib bormoqda. Xo'sh, bunday paytda qanday chora-tadbirlar ko'rish kerak? Inson salomatligini saqlash, aholi orasida sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyatni shakllantirish borasidagi ishlar ko'ngildagidekmi?

O'zbekiston valeologiyasi uyushmasi raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor Shuhrat Ergashev bilan subhatimiz shu haqda bo'ldi.

Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzi targ'iboti keng yo'lga qo'yilgan. Bir necha o'n yillar davomida aholiga sog'lom turmush tarzi asoslarini yetkazish ma'rifiy ish, targ'ibot va tashviqot sifatida olib borilmoqda, — deydi Shuhrat Ergashev. — Sog'lom turmush tarzi haqidagi ma'lumotlarni tarqatishga asoslangan yondashuvlar bugungi kunda juda kam samara berayotgani va asosan, formal xususiyatga ega ekan ma'lum bo'ldi. Ko'p shifokorlar ma'lumotni aholiga yetkazish ko'nikmasiga ega emas.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, quruq targ'ibot zamonaviy sog'liqni saqlash tizimi talablariga javob bermaydi. Sog'lom turmush tarziga erishish uchun nima qilish kerakligini odamlarga qanchalik ko'p uqtirmang, odatlar o'zgarishga qaratilgan. Hozirgi paytda tibbiyot e'tiborni faqat bemorga qaratadi va davolash bilan shug'ullanadi. Shifokor ham salomatlik haqida emas, kasallik haqida ko'proq tushunchaga ega. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida odamning salomatligini saqlash va mustahkamlash, ichki zaxirasini ko'tarishga yo'naltirilgan birorta ixtisoslik mavjud emas. Shundan kelib chiqib, organizmning individualligi va zaxira imkoniyatlariga tayanib, sifati va sog'lom hayot tarzini shakllantirish zarurati yuzaga chiqmoqda. Bu vazifa bevosita preventiv tibbiyot yo'nalishi — valeologiya faniga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Valeologiya — salomatlik to'g'risidagi fan, ya'ni sog'lom, jismoniy va aqlan yetuk avlodni voya yetkazish ustida qayg'urish hamda barakali umr ko'rish demakdir. Preventiv tibbiyotning maqsadi insonni har xil xastaliklardan asrash, sog'lomlashtirishga qaratilgan. Nafaqat sog'lom hayot tarzi, balki sifati salomatlikka erishish uslublari va tadqiqot mexanizmlarini o'rganuvchi bu fanning obyektivi mutlaqo sog'lom yoki kasallik oldi holatidagi odamlar hisoblanadi.

Bugungi kunda turli kasalliklar ko'payib ketayotganini inkor etib bo'lmaydi. O'zbekistonda yuqumli bo'lmagan kasalliklar bilan bog'liq jinsi va yoshi bo'yicha standartlashtirilgan barvaqt o'lim ko'rsatkichi umumiy o'lim ko'rsatkichining o'rtacha 76 foizini tashkil etar ekan. Bu juda katta raqam. Shunday emasmi?

— Yurak-qon tomir, o'pka va nafas tizimi kasalliklari, onkologiya va qandli diabetga chalinganlar soni tobora ortib borayotgani sir emas. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlarining ta'kidlashicha, O'zbekistonda yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavf omillariga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali barvaqt o'limni ancha kamaytirish mumkin. Buning oldini olish uchun, albatta, preventiv, ya'ni profilaktik tibbiyoti amaliyotga kiritish zarur.

Shu yo'nalish bo'yicha juda katta ishlar boshlandi. Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida preventiv tibbiyoti rivojlantirish sektori tashkil qilindi. Sektor uch guruhga bo'linib, respublika bo'yicha ish olib bormoqda. Toshkent tumanida pilot loyiha boshlandi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda nafaqat tibbiyot xodimlari, balki jumalistlar, huquqshunoslar, sosiologlar, axborot texnologiyalari va dasturlash mutaxassislarining o'limi alohida. Chunki aholining xulq-atvor tarzi (stereotipi) ni o'zgartirish nafaqat tibbiyot, balki boshqa sohalar bilan ham chambarchas bog'liq. Shu bois, 550 nafardan iborat hamshira, shifokor, bog'cha tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari, mahalla posbonlari va boshqa soha vakillarini preventiv-profilaktik tibbiyot bo'yicha o'qitdik. Bu jarayon davom etmoqda.

Tuman ko'p tarmoqli hamda oilaviy poliklinikalarda valeokabinet ochildi. Tumaning har bir mahallasida valeopunkt faoliyati

yo'lga qo'yilyapti. Bu mamlakatimizda ilk bor amalga oshirilmoqda. Punktida nafaqatgina bir nafar shifokor va ikki hamshira ishlab turibdi. Vrach valeologlarning vazifasi odamlarda kasallikning paydo bo'lishi va rivojlanishining oldini olish, yurtdoshlarimizni sog'lom turmush tarziga o'rgatish. Bu preventiv tibbiyoti shakllantirish borasidagi dastlabki qadamlardir.

Oldimida turgan yangi vazifa sog'lom turmush tarzi targ'ibotidan chekinib, uni odamlar hayotida shakllantirishga o'tishimiz kerak. Ko'p yillar sog'lom turmush tarzi targ'ib qilindi. Lekin ertalab yuguring, kunduzi piyoda yuring, to'g'ri ovqatlaning, deyshdan nariga o'tilmadi. Vaholanki, har bir



insonning individual holati bor. Hatto qachon, qancha vaqt yugurish yoki piyoda yurish kerakligini salomatlikni individual baholash orqali belgilash lozim.

Baholash tizimi qanday ko'rsatkich va tamoyillarni o'z ichiga oladi?

— Inson organizmi har tomonlama individual xususiyatlarga ega yaxlit bir tizim. Shuning uchun unda hayot ko'nikmalarini o'zgartirishga ham turlicha qarash kerak. Salomatlikni baholashda ma'naviy, ruhiy, jismoniy va tibbiy tamoyillarga tayaniladi.

Faqat ma'naviyat orqali odamni kamolotga yetkazish va ichki dunyosini uning tarbiyasi, oilaviy an'nalari va kelib chiqishi asosida shakllantirish mumkin. Ma'naviy tamoyil orqali undagi shu holatlarni aniqlash zarur bo'ladi.

Ruhiy tamoyil — har bir odamning individual ta'sirchanligi, sezgi va hissiyotlarini aniqlaydi. Uni shakllantirish va takomillashtirish hayot sifati va davomiyligini ta'minlaydi.

Organizmga bo'ladigan turli individual jismoniy yuklamalarni aniqlash jismoniy tamoyil orqali amalga oshiriladi. Bular bolalikdan me'yoriy tarzda shakllantirilib, salomatlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan holda muntazam va tizimli, ma'naviy va ruhiy sifatlar bilan uyg'unlikda olib boriladi.

Noinfektsion kasalliklarning xavfli omillariga qarshi profilaktik chora-tadbirlar bilan birga sog'lom ovqatlanish va reproduktiv salomatlik muammolarini tibbiy tamoyil ko'rib

chiqadi. U o'z salomatligiga mas'uliyatli bo'lishga ham o'rgatadi.

Maishiy va kasbiy xususiyatlar, ruhiy-emotsional holat, uyqu va ovqatlanish xarakteri, ob-havo va iqlim sharoiti tahlili ham hayot tarzini to'g'ri baholashga ko'maklashadi.

— Shu o'rinda har bir insonning o'z sog'lig'iga mas'uliyati, tibbiy madaniyat degan tushunchalarga izoh bersangiz?

— Har bir inson o'z salomatligini boshqara bilishi kerak. Organizmni doimiy kuzatib, sog'liqqa e'tibor berib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasallikka o'z vaqtida chora ko'rish — tibbiy madaniyatning bir ko'rinishi. Deylik, boshingiz og'ridi, eng avvalo, kasallikning ildizini aniqlashga harakat qiling. Balki buning sababi oddiy, stress, uyqusizlikdir. Balki toza havoda bir oz sayr qilsangiz yoki to'yib uxlasangiz o'tib ketar. Darrov dori ichish kerak emas. O'zbekistonda shu darajada dorixonalar ko'pki, birorta davlatda bunchalik "doriga o'chlik" yo'q. Dorilarni pala-partish qabul qilish ham salbiy oqibatlariga olib kelishiga guvoh bo'lyapmiz.

Har birimizning o'z salomatligimizga mas'ulligimiz birinchi darajali omil sanaladi. Shu bois, kasallik asosi ham e'tibordan chetda qolmasin. Deylik, bosh og'rishiga sabab bo'lgan stress yoki uyqusizlik nimaning natijasida kelib chiqdi? Avvalo, ana shu omilni bartaraf etish kerak.

Har qanday kasallikni davolashda no-medikamentoz, ya'ni turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan davolash usuli ham muhim sanaladi. Turmush tarzimiz — bu tibbiy madaniyatimizning qanchalik darajada ekanini o'chiq-oydin ko'rsatuvchi o'ziga xos ko'zg'u. Sog'lom turmush tarziga nechog'liq rioya etishimiz tibbiy madaniyatimiz qay darajada ekanini bildiradi.

— Ma'lumotlarga ko'ra, kam-harakatlilik butun dunyoning o'tkir muammosiga aylanayotgan hozirgi davrda turli kasalliklarga chalinayotgan, ayniqsa, tana vazni oshishi kuzatilayotgan aholi ulushi o'sib bormoqda. O'zbekiston ham bu tendensiyadan chetda emas.

— Ha, afsuski, shunday. Holsizlik, uyquning buzilishi, diqqat-e'tiborni jamlay olmaslik, xotira pasayishi, sababsiz charchash hissi, semizlik kabi belgilar bugun deyarli har bir kishida uchraydi, lekin kamdand-kam odam bu holatlarni kamharakatlilik bilan bog'laydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, yiliga chekshidan 5 million nafar, kamharakatlilikdan esa bundan ham ortiq inson qurbon bo'lmoqda.

Harakat, jismoniy mashq sog'lom turmush tarzining asosiy tamoyillaridan sanaladi. Jismoniy mashq hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Har qanday jismoniy faollik nafaqat stressni bartaraf etadi, balki organizm holatini yaxshilab, hayot davomiyligini oshiradi.

Jismoniy sog'lomlik uchta sabab bo'yicha tana vaznini nazorat qilishning muhim jihati hisoblanadi.

Davomli jismoniy yuklamalar organizm-dagi kaloriyani sarflash evaziga tana vazni kamayishini tezlashtiradi. Tizimli jismoniy faollik organizmda to'plangan yog' qatlamlari o'zlashtirilishiga yordam beradi va mushak og'irligini ko'paytiradi. Tizimli mashg'ulotlar diqqatingizni ovqatdan jismoniy faollikka yo'naltiradi va bevosita iste'mol kaloriyasi miqdorini kamaytiradi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, haftada atigi 2,5 soatlik jismoniy faollik erta o'lim holatlarini 28 foizga, yurak kasalliklariga chalinish ehtimolini 20 foizga kamaytiradi. Bundan tashqari, jismoniy faollik natijasida organizmda biosintez jarayoni faollashadi, qon aylanish jarayoni 4-5 marta kuchayadi, yurak qisqarishlari soni tezlashadi, bu esa organizmda yangi energiya hosil bo'lishiga va energiya bilan ta'minlanish yaxshilanishiga olib keladi. Shu bois, jismoniy faollik sog'lom turmush tarzining eng asosiy qoidalardan biri hisoblanadi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA subhatlashdi.

2024-yil — Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

ULARGA HAVAS BILAN QARAYMIZ

“Qandingni ur, bolam!” deya tilak bildiramiz



Orifjon BOZOROV,
fizika-matematika fanlari
nuzodati, dotsent

2024-yil mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” deb nomlanishining o'zi ham ana shu e'tiborning yuksak namunasi emasmi?! Bu yilda yoshlarning manfaatini himoya qilishga qaratilgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar va dasturlar qabul qilindi. Ilm-fan, innovatsiya, axborot texnologiyalari kabi sohalar yanada yuksaladi. “Yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yangi kuchlar safarbar etiladi.

Bugun yoshlar alohida qudratli kuch sifatida shakllandi. Ular jamiyatning barcha jabhasida o'z o'limi topmoqda. Ishonchni oqlamoqda. Bunday deyshimizga sabab yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ularning orzusi, sha'ni va qadr-qimmatini, munosib kelajagini ta'minlashga qaratilgan oqilona siyosat, yuksak ishonchdir. Bu ishonch yana nimalarda namoyon bo'ldi? Davlatimiz rahbarining muhim lavozimlarga juda ko'plab yoshlarni tavsiya qilgani, ularni mas'uliyatli vazifalarga tayinlagani bu borada butunlay yangicha konseptual asoslarga ega siyosat yuritilayotganini ko'rsatadi.

Yoshlarning real muammolarini aniqlash va yechimini topish kabi masalalar strategik vazifa sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. 2016-yil 14-sentabrda O'zbekiston Respublikasining “Yoshlar o'ldi davlat siyosati to'g'risida”gi qonuni qabul qilindi. Ochiqlik va shaffoflik, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yogga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi hamda yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmagligi mazkur qonunning asosiy prinsiplari etib belgilandi. Mamlakatimizda 30-yilun sanasi “Yoshlar kuni” deb e'lon qilingani ham yosh avlodga e'tiborning o'ziga xos ifodasidir.

Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarni rag'batlantirib borish maqsadida “Mard o'g'lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta'sis etildi. Bizning qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti talabasi Anvar Rahmatov ham “Mard o'g'lon” davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Bundan tashqari, yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, ular o'tsidadakitoxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan besh muhim tashabbus amalga oshirilmoqda. Qishloq yoshlarining muammolarini hal etish, tadbirkorlik va mehnat faoliyatini yo'lga qo'yishga amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Jumladan, Qamashi tumanidagi Guliston qishlog'ida yashovchi, institutimizga biriktirilgan bir guruh yoshlarning niyati oshirish. Ularning xohish-istagi o'rganilib, duradgorlik, xizmat ko'rsatish, tikuvchilik kabilar bilan shug'ullanishi uchun zarur uskuna va jihozlar olib berilmoqda.

Ishlagan talaba mas'uliyatli bo'ladi

O'tgan qisqa vaqtda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ishsiz yigit-qizlarning bandligini ta'minlash mamlakat



Hamma davrlarda ham yoshlarga u qadar ishonch bildirilmagan. Ko'pchilikka ayon bir ibora bor — hatto qadimgi qo'lyozmalarda yoshlar haqida salbiy fikrlar bildirilgan ekan. Bu nimadan darak beradi? Yoshlar masalasi va tarbiyasi bilan bog'liq muammolar asrlar davomida faylasufi, muallimlarni, millat fidoyilarini o'yantirib kelgan. Demak, bu mavzu shu qadar qadar dolzarbligini yo'qotmay kelyapti. Prezidentimizning davlat rahbari sifatida ish boshlagan kundanoq yoshlarga e'tibor qaratgani ham shundan.

iqtisodiy-ijtimoiy siyosatining eng asosiy va strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Birinchi g'alda yoshlarning o'qib, ta'lim olishi, jamiyatda o'zining munosib o'miga ega bo'lishi, kasb-hunarini puxta egallashi uchun qo'llab-quvvatlov choralarini ko'rildi.

Masalan, biror-bir faoliyat uchun diplomi yo'q, ammo ishlab chiqarish yoki muayyan kasb bo'yicha amaliy ko'nikmaga ega ishsiz yoshlarni malakani baholash markazlarida o'qitish va zarur sertifikatlar bilan ta'minlash tizimi joriy etildi.

“Yoshlar daftari” tashkil qilinib, unga mamlakatimizning barcha hududidagi ishsiz, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj yigit-qizlar kiritildi. Bu tizim ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyojli hamda ishtiyoqli bo'lgan ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasidir. U O'zbekiston ijtimoiy siyosatining eng muhim omiliga aylanib ulgurd va bugun bu boradagi muammolarning yechimini ta'minlab bermoqda.

Yoshlar bandligi, ayniqsa, talabalarining ham o'qib, ham ishlashi uchun imkoniyat yaratish borasida katta qadamlar qo'yildi. Bu ham yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir ifodasidir. Shu paytga qadar talabalar uchun bunday imkoniyat berilmagan. Aksincha, talabalarga “yo o'qishni tanlaysan yoki ishini” degan talablar qo'yilgan. Bugun talabani ishga olgan tadbirkorlarga soliq bilan bog'liq iymtiorlar berilyapti.

Institutimizda 946 talaba ham o'qib, ham ishlaydi. Ishlash istagidagi 388 nafar yigit-qizning bandligini ta'minlashga ko'maklashildi. Bundan tashqari, muassasimizda 92 talabadan

aylandi. 27 talabamiz respublika miqyosidagi fan olimpiadalarida muvaffaqiyat qozondi. Xitoyda o'tkazilgan Paraosiy o'yinlarining suzish bahslarida institutimiz talabalaridan Dmitriy Xorlin oltin, Islom Aslanov kumush medalni qo'lga kiritdi. Yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan intellektual olimpiadada talabalarimiz Suhrob Yarashov shaxsha, Feruza Qurbonova shaxmat bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Ular 30 million so'm miqdorida pul mukofotiga sazovor bo'ldi.

Ta'limga kiritilgan sarmoya kelajakka qo'yilgan muhim qadamdir. “Yoshlar daftari”ga kiritilgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj 283 nafar talabamizning o'qishi uchun shartnoma puli mahalliy byudjet va homiyalar tomonidan to'lab berildi. Yana bir gap. Shu paytga qadar hech qachon ijrada yashayotgan talabani ijara pulini to'lashiga yordam ko'rsatilmagan. Hammamiz ham talaba bo'lganmiz. Biror vaqt shunday bo'lganmi? Bugun ijrada yashaydigan talabani shart-sharoiti nazoratga olingan, ijara pulining yarmi davlat hisobidan qoplanayapti. Masalan, 2023-yilda institutning ijara huquqi asosida yashayotgan 1500 dan ziyod talabamiz ijara to'lovining 50 foizi davlat hisobidan to'lab berildi. Institutning respublika va hududlararo o'tkazilgan turli tanlovlar, sport musobaqalari va fan olimpiadalarida ishtirok etib, g'olib bo'lgan talabalar ham pul mablag'i bilan rag'batlantirilmogda.

Ma'naviyat — eng muhim asos

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish va 2026-yilga



iborat “Volontyor” mehnat guruhi tashkil etilgan bo'lib, munosib rag'batlantirib kelinmoqda.

Rag'bat — muvaffaqiyat garovi

Qadimdan Sharqda ta'lim va tarbiya birga olib borilgan. Shundan kelib chiqib, institutimizda o'qitish sifatini yanada yuksaltirish bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi ham oshirildi. Birgina besh muhim tashabbus doirasida o'tgan yilning o'zida yuzdan ziyod tadbir va sport musobaqalari o'tkazildi. Barcha sa'y-harakatlarimiz samarasini bermoqda. Talabalarimiz turli startap tanlovlar, Uzbekistan GTL, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi va boshqa gigant korxonalarining stipendiyasi hamda amaliyot tanlovlarida g'olib bo'lmoqda. Masalan, so'nggi besh yilda 4 talabamiz “Mirzo Ulug'bek vorislari” respublika tanlovi g'olibi bo'ldi, 33 talabamiz nomdor stipendiyalar sohibiga

qadar 50 foizga yetkazish belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, chuqur bilimga, tafakkurga, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash maqsadida mamlakatimizda oliyog'lik soni 200 dan oshdi. Bu 2016-yilda mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasalaridan ikki yarim barobar ko'p demakdir.

Institutimiz misolida olsak, 2017-yili talabalarimiz 8 ming nafarga yaqin bo'lgan bo'lsa, ayni paytda ular soni 16 mingdan oshdi. Bu yillar davomida ta'lim yo'nalishlari 33 tadan 49 taga ko'paydi. Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosi doirasida institutga 105 nomdagi laboratoriya jihozlarini keltirildi.

Biz yuqorida yoshlar masalasiga doir ko'plab xayrli ishlar, imkoniyatlar, e'tibor va g'amxo'rlik haqida fikr yuritdik. Ularning barchasini ro'yogga chiqaradigan, hamma sa'y-harakatlarimizning samarali kechishini ta'minlaydigan eng muhim jihab bu — ma'naviyat. Yoshlarimiz ma'rifatlil, ma'naviyatli bo'lsa, ertangi kunimiz biz kutgandan ham porloq bo'lishi muqarrar.

Albatta, har bir yosh o'z ota-bobolarini, ajdodlarini bilgani kabi xalqimizning boy tarixiy merosini, allomalarning ibratli hayot yo'lini ham puxta o'rganmog'i lozim. Bu yoshlarning millat ertasi uchun qayg'urish, hayotda o'z o'limi topish borasidagi mas'uliyatini oshiradi.

Bir so'z bilan aytganda, qaysi yurtda yoshlarga yuksak ishonch bo'lsa, ularga munosib e'tibor ko'rsatilsa, o'sha yerda taraqqiyot bo'ladi. Bugungi yoshlarga havas bilan qaraymiz. Ularga berilgan imkoniyatlarni o'zimizning yoshlik yillarimiz bilan qiyoslaymiz. Katta farqi ko'ramiz. Havasimiz yanada ortadi. “Qandingni ur, bolam! Seni qo'llayotgan, senga ishonch bildirgan xalqimizning oldida hamisha yuzing yorug' bo'lsin”, deya ezgu tilak bildiramiz. Albatta, ular ulkan maralarni zabt etadi.



NUQTAYI NAZAR

Musiqa SHUNCHAKI SAN'AT EMAS

ma'naviyatli xalqning yuksak qadriyatidir

Davlatimiz rahbari joriy yil 22-dekabrda bo'lib o'tgan yig'ilishda konseptual vazifalarni kun tartibiga qo'ydi. Ma'naviyati yuksak xalqimizning qadriyatlarida musiqa madaniyatining o'rni, xususan, yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati bo'yicha strategik vazifalarni belgilab berdi.

Jihati shundaki, dunyo musiqa durdonalaridan istalgan vaqtda bahramand bo'lish imkoniyati paydo bo'ldi. Salbiy ta'siri shuki, mazkur imkoniyatlardan foydalanib, g'arazgo'y kimsalar va markazlar yoshlar, hatto butun jamiyat ongiga yengil-yelpi ohanglar, ma'no-mazmunsiz xirgoyi va ruhiyatga aks ta'sir qiladigan shovqinli musiqiy ishlanmalarni taqdim etmoqda. Buning natijasida aksar yoshlar ongida musiqiy did, his-tuyg'u va madaniyat ko'nikmalari mo'rt shakllanayotir, shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yishdek illatlar bo'y ko'rsata boshladi. Demak, davlat nazariyotchisi va falsafa bilimdoni Aflotun haq: shaxs, jamiyat va davlatning tizimli hamda zamonaviy taraqqiyot uchun musiqa san'atidan foydalanish dasturiga ega bo'lish lozim.

Prezidentimiz ma'naviy va ma'rifiy ishlarni rivojlantirish jarayonida transformatsiyalashuv hodisasi kechayotganiga e'tibor qaratdi. Yoshlar va jamiyatimiz hayotida musiqa san'atining transformatsiyalashuvi jarayonini to'g'ri tashkil etish taqozo etiladi. Buning uchun maqom san'ati cholg'u va ashula yo'llarining yangi ijrochilik uslublarini yaratish, har bir baxshchilik maktabining ijrochilik maktablari xususiyatlarini targ'ib qilish bo'yicha ilmiy maktablarni yaratish lozim. Shuningdek, an'anaviy cholg'u va ashula ijrochilik san'atida yangi individual ijro uslublari majmuini tarkib toptirish, estrada musiqa va qo'shiq ijrochiligida milliy tajribani jahon estrada san'ati ijrochilik an'analari bilan boyitish bo'yicha tizimli ilmiy-

Musiqa san'ati yoshlarimizning ma'naviy-ma'rifiy ko'nikmasini yuksaltirish, g'arazgo'y hamda ma'no-mazmunsiz ohanglarning ruhiy ta'siridan qutqaruvchi omildir.

“

”

metodik tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi. Bularning barchasi musiqa san'atini yuksak ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida Uchinchi Renessansni barpo etishga xizmat qildirish omili bo'ladi.

Soha mutaxassisi sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan musiqa madaniyati fanini takomillashirish lozim, degan fikrdaman.

Mazkur fan yoshlarni milliy va jahon xalqlari musiqa san'atining noyob durdonalari bilan tanishtiradi. Biroq hozir umumiy o'rta ta'lim maktablari xalq cholg'ulari, nota asarlari va tegishli o'quv adabiyotlari bilan davlat hisobidan ta'minlanayotganini hisobga olib, mazkur cholg'ular ijrochiligi bo'yicha uslubiy tavsiyalar, qo'llanmalar va qo'shimcha darsliklar hamda o'qituvchi kitobi uchun mustaqil asarlar yuzasidan ko'rsatmalar majmuini ishlab chiqish zarur.

Maktab o'quvchisining loqal ikki cholg'uda kuy ijro eta olish ko'nikmasini tarkib toptirish vazifasi qo'yilgan ekan, shu cholg'ularda ijro etish metodikasi bo'yicha o'quvchi tushunadigan uslubiy adabiyotlarni yaratish eng muhim vazifalardan biridir. Kuzatishlarimizga ko'ra, ijrosi qulay bo'lgan doira cholg'usi ijrochiligi asoslari va texnikasi bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga mo'ljallangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilmagan. Shu sababli maktab-



larning musiqa o'qituvchilari har bir xalq cholg'u ijrochiligi metodikasi bo'yicha o'rta maxsus va oliy pedagogik ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotlaridan foydalanib kelayotir. Demak, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy pedagogik ta'lim muassasalari uchun o'quvchilarning xalq cholg'u ijrochiligi ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan nazariy-metodik ilmiy ishlanmalarni yaratish eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

Musiqa san'ati yoshlarimizning ma'naviy-ma'rifiy ko'nikmasini yuksaltirish, g'arazgo'y hamda ma'no-mazmunsiz ohanglarning ruhiy ta'siridan qutqaruvchi omildir. Uning durдона namunalari bahramand bo'lgan odam salbiy g'oyalarni eksport qiluvchilar tuzog'iga ilinishi mushkul. Bunda musiqa san'ati vakillarining unvon mavqei o'rin tutmaydi, aksincha, ularning amaliy faoliyati vositasida yoshlar, ayniqsa, jamiyatimiz ma'naviyati yuksalishidagi harakatlar natijasi baholanadi.

Rivojlangan davlatlar muhim g'oyaviy-ma'naviy qurollarga ekanini unutib bo'lmaydi. Shunday qurollardan biri musiqa san'atidir. Ongi va dunyoqarashi shakllanmagan o'smirming ajnabiy musiqalar tinglashi, mazmunini tushunmaydigan xorijiy nag'malar oshutasiga aylanishi va xorijlik san'atkor atalmish ayrim shaxslarning kiyinish hamda yurish-turish madaniyatiga taqlid qilishi ma'naviy fojia. Shu ma'noda, musiqa san'atining ongli vakillari o'z ijodiga mahliyo bo'lib yurmasdan, mamlakatimizning maktabgacha, maktab, o'rta maxsus va professional hamda oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, uyushmagan yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishda o'z mahorati asosida individual tadbirlarni amalga oshirishi vijdon ishidir. Zero, madaniyati yuksak xalqimiz hozirgi global murakkab sharoitda yuksak ma'naviyat va uning tarkibi bo'lgan musiqa madaniyatiga asoslangan holda yangi O'zbekiston sharoitida o'z galgarga namuna bo'lishga qodir.

Anvar LUTFULLAYEV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti professori

Musiqa san'ati asrlar davomida uyg'oq qalbi yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan tarbiyalash vositasi bo'lib kelgan. Bu jarayonda xalq og'zaki ijodi namunalari, maqom san'ati durdonalari, an'anaviy cholg'u va qo'shiqchilik asarlari, bastakorlar va kompozitorlarimiz ijodi, amaliy faoliyatidagi musiqa san'ati mutaxassislarining sa'y-harakatlari va soha olimlarining tadqiqotlari muhim mamba vazifasini o'tagan. Shu bois, yig'ilishda mazkur manbalar asosida ma'naviy tarbiyalash, jamiyat va davlatni shiddatli rivojlanish jarayonida tahdidlardan asrash vazifasi qo'yildi.

Mashhur faylasuf Aflotun fikricha, "Davlat taraqqiyoti yoshlarning qanday musiqa tinglayotganiga ham bog'liq bo'ladi". Bu hikmat asrlar davomida o'z tasdig'ini topib kelmoqda. Shu ma'noda, hozirgi globalashuv sharoitida internet musiqa san'ati namunalari bahramand bo'lish ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijobiy



Ijodiy iqtisodiyot

O'z nomiga mos yashil shahar — Shahrisabz. O'lis tarixning ne-ne suronli kunlariga guvoh bo'lgan qadim Kesh. Bu manzil bir zamonlar Sohibqiron Amir Temur tashabbusi bilan obod maskan bo'lgan. Ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, mahobat Oqsaroy binosi qad rostlagan. Turli yurtlarning olimi donishlari taklif etilib, ilm-fan rivoji uchun beqiyos ishlar qilingan

Yetti iqlimdan qo'ligul ustalar taklif etilib, zaranglikdan to hunarmandchilikning barcha tur-larini shu yerdə rivojlantirish imkoniyati yaratilgan. Afsuski, ayanchli taqdiming charxpalagi bu shaharni ham chechlab o'tmadi. Buyuk sarkarda amalga oshirgan bunday jahonshumul ishlar barbod qilindi. Lekin ko'na harix ildizi batamom yo'q bo'lib ketmadi. Bugungacha qadar uning ma'lum bir qismi yetib keldi.

Islahotlar tufayli keyingi yillarda Shahrisabz butunlay yangicha qiyofaga kirdi. Oqsaroy majmuasi obod qilinib, go'zal maskanga aylantirildi. Qadimiy urf-odatlar, an'analar qayta tiklandi. Majmuatrafida milliy hunarmandchilik markazlari ish boshladi.

Yevropalik mehmon hayrati

Xorijlik sayyohning tarixga ishtiroqchiligi uni olis yurtlardan shu tomonlarga yetaklab kelgan bo'lsa, ajabmas. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda ta'rifi ko'p o'qib, eshitgani — Shahrisabzni ko'rishga otlangan yevropalik mehmon Oqsaroy majmuasiga qadam qo'yganida quyosh nurlari bino peshoqiga endi tusha boshlagan edi. Obida devorlarida o'fob yog'dusi ta'sirida jilolanayotgan naqshlar ko'zni qamashiradi. Sekin g'ishtin devorga yaqin borib, quloq tutdi. Yaqin atrofdan o'tayotgan sayyohlar unga ajablanib qarab qo'yishardi. Mehmon esa baland imoratning yuqori qismida mayin esayotgan shamol ta'sirida musiqa sadolari kabi chiqayotgan ovozi tinglab, xayolan moziyga sayohat qilardi. Qalbida o'z gacha sokinlik his qilish, bu yerlarga kelgani uchun ich-ichidan mamnunlik tuydi.

Erimasdan Oqsaroy obidasining har bir g'ishtiga nazar tashlab chiqarkan, unga hamrohlik qilayotgan turizm sohasi vakiliga savol berishni ham kanda qilmasdi. Shu tariqa Sohibqiron haqida ko'proq ma'lumot olishga erishdi. Shuningdek,

Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'atning rivojlanishi, ilm-fan taraqqiyoti haqida ham qiziqdi. Ayni paytga qadar qadimiy qadriyatlar, hunarmandchilik an'analarning qanchalik saqlanib qolgan haqida ham surishtirishni unutmadi. Bor bo'lsa, unga ko'rsatishlarini iltimos qildi.

Bu taklifdan so'ng tarjimon mehmonni majmuat hududidagi Hunarmandlar markazi tomon yetakladi.

Oqsaroy majmuasining o'zida zamonaviy shaklda qurilgan Hunarmandlar markazida milliy hunarmandchilik namunalari — kashta, har xil gilamlar, do'ppilar, zardo'zi va ipak liboslar ko'rgazmaga qo'yilgan. Qo'lda tayyorlangan mahsulotlarga ko'z tashlangan yevropalikning hayrati yanada oshdi. Namunalardan qo'lga olib, uzoq tikildi.

— Bu mahsulotlar hozir ham tayyorlanadimi? — hayrat bilan so'radi u.



Shu savolni kutgan mezbom ham uni ichkariga boshladi. Markazning keyingi xonalarida qator bo'lib o'tirgan milliy libosdagi qizlar shoshilmasdan qo'lida igna bilan kashta tikardi. Yana birov o'ppi tikish bilan band. Ularning hech biri adashmasdan o'z ishini bajarayotganini ko'rib, xorijlikning

MARG'ILON ATLAS-UI ADRASI

SHAHNISABZGA QANDAY YETIB KELDIZ?



qiziqishi yanada ortdi. Oddiy matoga chevar qizlar mahorat bilan ishlav berayotganini ko'rib, hayratiga hayrat qo'shildi. Shoshgancha ularni suratga olishga tushdi. Qiziqqan natsalarini so'rab, mahsulotlardan esdalik sifatida sotib ham oldi.

Marg'ildonda malaka oshirildi

Ma'lumki, Shahrisabzda hunarmandchilik azaldan rivojlangan. Ayniqsa, zardo'zlik, qoroqchilik, kashtachilik kabi kasblar oridan aholi yaxshi daromad topgan. Ayni paytga ham bu milliy an'ana davom etmoqda. O'ziga xos sabr va matonat bilan tayyorlangan mehnat mahsuli shaharni tomosha qilish uchun kelgan sayyohlarga tavsiya etilib, sotiladi. Buning ortidan yaxshigina mablag' topib, ro'zg'or tebratayotgan oilalar soni anchagina. Yurtimizda turizm rivojlanishi xizmatlar sohasini ham shunga hamohang o'zgartirib borishni taqozo etmoqda. Ancha yillardan

buyon tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan Nodir Mannonov Oqsaroy majmuasi hududida zamonaviy tipdagi hunarmandlar klasteri tashkil etdi. Hozir klasterda atlas, adras, baxmal, ipak gilamlar, liboslar, zargariy, iroqi kashtachilik kabi yo'nalishlar tashkil etilgan.

Nodir aka asli mutaxassisi bo'yicha zargar bo'lsa-da, tirishqoqli, harakatchanligi evaziga boshqa hunarlarni ham yaxshi o'zlashtirgan. Vodiya borib, usta-hunarmandlar tajribasini o'rganib qaytgan. Marg'ilonlik tadbirkor Ibrohim Sultonov bilan tanishib, ma'lum muddat unga shogird ham tushdi.

— Faoliyatimizni 2021-yilda boshlaganmiz, — deydi klaster rahbari Nodir Mannonov. — Marg'ildonda malaka oshirib qaytgach, klaster tashkil etish maqsadida Shahrisabz shahar hokimiga maqsadimni aytdim. U kishi meni qo'llab-quvvatlab, nima yordam kerak bo'lsa, barchasiga tayyorligini ta'kidladi. Bundan ruhlanib, ishga kirishdim. Asosiy maqsadim uyda ishsiz o'tirgan xotin-qizlar bandligini ta'minlash edi. Oqsaroy majmuasi hududidan joy

olib, harakatni boshlab yubordim. Ibrohim aka yonimda maslahat berib turdi. Dastgohlar keltirib o'tmatdik. Birinchi navbatda, "Ayollar daftari", "Temir daftari", "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turgan hamda nogironligi bor, qo'ldan ish keladigan ayollarni ishga olishga e'tibor qaratdik. Lekin ularning bandligini ta'minlashdan oldin hunarni yaxshi o'rgatish kerak edi. Shu bois, ish o'rgatish maqsadida o'rtiz nafar xotin-qizni olib, Marg'ildonga bordik. U yerda ma'lum vaqt tajriba oshirgach, qaytib kelib, faoliyatimizni to'liq boshlab yubordim.

Shahrisabzda atlas to'qilmoqda

Klaster rahbari ta'kidlaganidek, Marg'ildonda ish o'rganib qaytgan 30 nafar xotin-qiz dastgohda ishlashni tez o'zlashtirib, qisqa fursatda mahsulot tayyorlay boshladi. Ilgari faqat vodiylar tomonlari ishlab chiqarilgan atlas adraslar endi Shahrisabzda ham to'qiladigan bo'ldi. Chevarlarning mohirliq matolarda aks eta boshladi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan xotin-qizlarning ishga taklif etilishi ularni g'oyat ruhlantirdi.

— Qo'limdan ish kelsa-da, imkoniyatim cheklangani bois, biror korxonaga yo muassasadan ish so'rab borishga hadiksirab yurardim, — deydi gilam to'quvchi Aziza Hasanova. — Bu yerga taklif etishganida, avvaliga adashmovchilik bo'lsa kerak, deb o'yaldim. Ikki-uch bor chaqirishgach, keldim. Men kabi xotin-qizlar ko'p ekan. Boshida bir oz qiyinaldim, lekin tezda o'rganib ketdim. Hozir rostini aytaman, bekorchi bo'lishga vaqt yo'q. Doim bandman. Shuning ortidan daromad topib, oilamga nafim tegmoqda. Oldingidek kun bo'yi bekor o'tirmasdan, o'z hunarimga ega bo'ldim. Buning uchun klaster rahbariyatiga rahmat.

Ko'pchilik ishsiz xotin-qizlar qatori mahallasidagi "Ayollar daftari"da ro'yxatda turgan Nafisa Rahmonova ham bugun hunarmandlar klasterida adras to'quvchi bo'lib ishlamoqda. U bu kasbni o'rganish zahoti ilg'or to'quvchilar qatoridan joy oldi. Mehnatsevarligi ortidan dastgohlarni ishlashni yaxshi o'rganib, bugun yetakchi ustoz sifatida e'tirof etilmoqda.

— Doim biror hunarim bo'lsa derdim, — deydi N.Rahmonova. — Marg'ildonga adras to'qish sirlarini egallash uchun borganimda, u yerda tengdosh dugonalarni qilyotgan ishlarni ko'rib, qoyil qoldim. Ular ishini juda chaqon bajarishardi. Tayyorlayotgan milliy matolari esa ko'zni qunvatardi. Bilasizmi, bir paytlar bizning Keshda ham bu matolar to'qilgan. Hozirgi zamoni yusksalarga emas, albatta, balki qadimiy, qo'lda yasalgan yog'och dastgohlarda ishlangan. Orada negadir to'xtab qolgan. Bugun bu hunar qayta jonlandi. Endi adras izlab, vodiya borish shart emas.

Shahrimizga deyarli har kuni dunyoning turli mamlakatlaridan sayyohlar tashrif buyuradi. Ular bizning milliy mahsulotlarimizga qiziqish bildirib, tayyorlanish jarayonini diqqat bilan kuzatadi. Qo'l mehnati mahsulini yuqori qadrlaydi, sotib oladi. Mehnatlarimiz zoye ketmayotganini ko'rib, yanada faol bo'lishga harakat qilamiz.

Dunyoga chiqadigan vaqt keldi

Klaster rahbarining aytishicha, bugun korxonada mahsulotlarini dunyo bozoriga chiqarish vaqti keldi. Sababi, korxonada dastlabki paytlar, ya'ni 2021-yilda 200 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 350 million so'mga yetdi. O'tagan 2023-yilda esa ishlab chiqarish hajmi yanada ortib, 500 million so'mlik savdo amalga oshirildi.

— Shu paytgacha faqat mahalliy bozorlarda savdo qilardik, — deydi N.Mannonov. — Joriy yildan Turkiyaga sotishni boshlaymiz. Keyinchalik boshqa mamlakatlar bilan ham shartnoma imzolashni rejalashtiryapmiz. Shu kunlarda sayyoh sifatida kelib, ishimizdan namunalarni olib ketgan ayrim xorijlik ishbilarmolon ham qiziqish bildirgan. Agar ular bilan kelishuvga erisha olsak, eksport hajmi yanada oshishi aniq.

Xabaringiz bor, Shahrisabz shahri 2024-yil Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining turizm poytaxti, deya e'lon qilgan. Shu bois, bunga munosib ravishda hozirlik ko'rishimiz kerak. Tashrif buyuruvchi mehmonlarga turistik salohiyatimizni namoyon etib, ularni milliy hunarmandchiligimizga qiziqishni yanada oshirishimiz zarur.

Viloyatda birinchilardan bo'lib tashkil etilgan hunarmandlar klasterida ayni paytda o'tirgan ortiq xotin-qizlarning bandligi ta'minlangan. Rejaga ko'ra, mahalliy aholi foydalanmayotgan jun xomashoyi qayta ishlanib, foydali mahsulotga aylantirilmoqda. Eng asosiysi, milliy mahsulotlar orqali mamlakat turizmi rivojiga ham hissa qo'shilyapti.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatda olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 123.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etiladi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Munajat Mo'minova
Musahhir: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy